

MUALLIF NUTQI NEOLOGIZMLARI
(SIROJIDDIN SAYYID SHE'RLARI MISOLIDA)

Kilichev Bayramali Ergashovich

Buxoro davlat universiteti

o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori

filologiya fanlari nomzodi

E-mail: buxara-1@inbox.ru

Rustamova Muhayyo Saidovna

Buxoro davlat universiteti

o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida magistranti

E-mail: m.s.rustamova@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqola Sirojiddin Sayyid asarlarida qo'llangan muallif nutqi neologizmlari, okkazonal birliklar tahliliga bag'ishlangan. Unda yangi hosilalarning yaratilishi va nutqiy ahamiyati bilan bog'liq tahlillar berilgan.

Kalit so'zlar: neologizm, yangi so'z, yangi tushuncha, okkazonal, lisoniy birlik, oksiomoron, individual nutq neologizmlari, so'z yasash qolipi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7622513>

Аннотация: Данная статья посвящена анализу неологизмов и окказиональных единиц авторской речи, используемых в произведениях Сироджиддина Сайида. В статье изложен анализ, связанный с созданием новых производных и их дискурсивной значимостью.

Annotation: This article is devoted to the analysis of neologisms and occasional units of the author's speech used in the works of Sirojiddin Sayyid. The article presents an analysis related to the creation of new derivatives and their discursive significance.

Ключевые слова: неологизм, новое слово, новое понятие, окказионал, языковая единица, оксюморон, неологизмы индивидуальной речи, схема словообразования.

Keywords: neologism, new word, new concept, occasional, linguistic unit, oxymoron, neologisms of individual speech, pattern of word formation.

Til – jamiyat hayotining ajralamas qismi sifatida doim taraqqiy etib boradigan tabiiy tirik hodisa. Har qanday millat, jamiyat hayotida ro'y beradigan har qanday yangilanishlar, eng avvalo, tilida, uning leksikasida aks etadi. Shunga ko'ra, leksika umumiste'mol so'z va yangi so'zlar kabi turlarga ajratiladi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'zbek tili minglab yangi so'zlar bilan boyidi. Yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan, yangi narsa va hodisa va tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan leksemalarga *neologizm* yoki yangi so'zlar deyiladi (yunoncha *neos* – "yangi"). Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo'lishi mumkin. Birinchisi umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi

deb yuritiladi. Leksemikada asosan umumtil neologizmi o'rganiladi. Individual nutq neologizmi uslubga xos hodisa deb qaraladi.

Har qanday neologizm dastlab individual nutqda yuzaga keladi. Bunday neologizm ko'pchilik tomonidan tan olinsa, tilning taraqqiyot qonunlariga mos tarzda hosil qilingan bo'lsa va tilda ma'lum ma'noni anglatish uchun zarur deb qaralsa, shundagina umumtil neologizmiga aylanadi, yakka nutq doirasidan chiqadi.[Rahmatullayev Sh. 2006, -B.93].

O'zbek tilshunosligida okkazional so'zlarning nazariy jihatlarini vujudga kelishi [Тошалиева С.Н., 1998], ularning badiiy estetik xususiyatlari birmuncha tadqiq etilgan. Bu borada O.To'xtasinovanning tadqiqotida quyidagicha ta'rifnu kuzatuish mumkin: "Okkazional so'zlar o'zida sinxron-diaxron qorishqlik, anomallik, nutq uslubi yoki muloqotning ayni shu daqiqasida yuz beradigan, so'z yasash xususiyatlarini o'zida mujassam etgan ekspressiv nutqiy birlikdir". [Тўхтасинова О., 2007, -B.12]. Tilshunoslikda atoqli otlar, jumladan, toponimlar ham neologizm bo'la oladimi, degan savol javobsiz qolmoqda. Biz bu haqdagi tahlillarimizni alohida chiqishimizda bayon etamiz [Kilichev B.].

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda "okkazionalizmlar" termini neologizmlarning nutqdagi ko'rinishiga nisbatan qo'llanilgan. Okkazionalizm (lot occasionalis – tasodifiy) – umumiste'molga muvofiq, tog'ri kelmaydigan, individual tarzdagi ma'noga ega bo'lgan til birligi. Okkazional ma'no leksemaning tildagi ma'nosiga xos bo'lmagan, ma'lum bir shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha ma'no yuklash natijasida yuzaga keltirilgan sun'iy ma'nodir. Okkazional ma'noga ega so'zni hosil qilishda ijodkor turli xil so'z yasash usullari va so'z yasash qoliplari, xususan [so'z+affiks], [perifiks+so'z], [so'z+so'z] kabi konstruktiviyalardan samarali foydalanadi. Bu esa muallif ijodidagi o'ziga xos uslubiy xususiyatlarni namoyon etadi. Shu ma'noda Sirojiddin Sayyid asarlarida qo'llangan okkazionalizmlar ham o'ziga xos. Bizning shoir asarlari matni yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz ularda bir qator xarakterli okkazional so'zlar mavjudligini ko'rsatdi. Undagi okkazionalizmlarni hosil bo'lish usuliga ko'ra ikkiga ajratish mumkin: 1) semantik okkazionalizmlar; 2) affiksatsiya usulida hosil qilingan okkazionalizmlar.

Semantik okkazionalizmlar tilda mavjud ba'zi so'zlarni yangicha ma'noda qo'llash natijasida yuzaga keladi. Masalan,

Bunda har bir nihol kelinchak bo'lgay,

Oftobtaxtim mening, **oytaxtim** mening.

Ko'priklar evrilib kelajak bo'lgay,

Olamga ostonam – poytaxtim mening ("Toshkent oqshomi" –B.41).

Keltirilgan she'riy parchada narsani boshqa narsaga nisbatlash, o'xshatish yo'li bilan ya'ni (fors-tojikcha) oftob so'ziga (fors) tilidan olingan taxt so'zini qo'shish [so'z+so'z] qolipi asosidagi yangi qo'shma so'z hosil qilingan. Ijodkor she'r ta'sirchanligini oshirish, hamda ona yurt tavsifini yanada kengroq ifodalash maqsadida shu misraning o'zida bir xil qolipdagi okkazional birlikni keltiradi. Turkiy oy so'ziga (fors) taxt so'zini qo'shish orqali ohori to'kilmagan o'xshatishlarni qo'llagan.

Bugun choy o'mniga **xotira damlab**

Yasharsiz goh shodon,

G'amingsiz goho,

Sakson yoshli o'smir Matyoqub domla,

Sakson yoshli bola Nazarmat bobo ("Faxriylar" –B.31).

Yuqoridagi qolip asosidagi neologizmlarni davom ettirgan holda shoir ijodida kompozitsiya usulida yasalgan qo'shma fe'lga ham duch kelamiz. *Xotira damlab* qo'shma fe'li okkazonal birlik sifatida qo'llangan bo'lib, keksa yosh vakillari o'tgan umrining goh shodon, goh g'amli kunlar esga olishlari tasvirini beradi.

Xirmonjoyda charx uradi bir butun olam,

Aylanardik qo'sh ho'kiz-u biz yana otam ("Somon yo'li somonlari" –B.65).

Xirmon (tojik) so'z bo'lib, bug'doy tashlanadigan uyum, joy ma'nosini beradi. Ammo shoir xirmon so'ziga joy so'zini qo'shish orqali butun-bo'lak munosabatidagi o'rin-joy oti yasagan. Bu orqali she'rda ma'nonini kuchaytirish nazarda tutilgan.

Qomatingdan zar yog'ar,

Siyminbadan, atlasnigor,

Ko'yलगingning zarlaridan

Menda ko'ngil zorlari ("Menga ko'ngil torlari..." –B.143).

Keltirilgan misrada siymin [forscha. kumush kabi, oppoq] poetikada kumushrang, kumushga o'xshash narsaga nisbatan qo'llangan. Badan [arabcha. tan, tana] so'zlarining qo'shilishidan okkazonal qo'shma so'z hosil qilingan. Misrada yorning go'zalligini tasvirlashda siyminbadan kumushdek oq tan birikmasi qo'llangan.

Shoir shu misradaning o'zida takror okkazonal birlikdan foydalangan. Bu orqali yorning tasvirini kuchaytirib ta'kidlash ma'nosini yuklaydi. Atlas [tekis, silliq, ipakdan to'qilgan mayin mato]. Nigor [yozuvchi, yozib oluvchi; sevikli; go'zal tavsif] so'zlarining qo'shilishidan neologizm hosil qilingan.

Sog' bo'ling, ey do'st-u hamxonam mening,

Tugaydir bir kuni hangomam mening,

Balki bu **shamnomam** – sevinchlarimdir,

Balki bu **shamnomam** – **g'annomam** mening ("Sog' bo'ling, ey do'st..." –B.221).

Kompozitsiya usulida yasalgan shamnoma va g'annoma kabi qo'shma so'zlari okkazonal birlik sifatida qo'llangan. Sham [to'ng'adigan yoki quyuqlashgan yog'dan o'rtasiga pilik qo'yib yasalgan tayoqchasimon chiroq]. Noma [rasmiy yozishma, maktub, xat]. Adib o'zi ta'kidlaganidek, "Bu to'rtliklarni men osmondan olib yozmadim. Yozilmagan katta she'rlarimning parchalaridir, balki kunlarim va tunlarimning bo'laklaridir" deya keltiradi. Ya'ni tunlari sham ostida yozilgan g'amli maktub shaklida yaratgan.

Kuzatishlarimiz natijasida shoir ijodida affiksatsiya usuli bilan yasalgan okkazonalizmlar qo'llanganini ko'ramiz. Bu esa shoir she'rlarining ta'sirchanligini oshirib, she'rning o'qishli, ohangdor bo'lishini ta'minlagan. Bu jihatlarni shoirning Abdulla Qahhorga bag'ishlab yozilgan "Haq so'z" she'rida ko'rish mumkin:

"Chorak asr hamnafas" emas,

Chorak asr dildosh, **og'riqdosh**

Bo'lib yashagansiz Kibriyo opa.

Yosh shoirlar o'qir – ko'zlarida yosh.

Shaxs oti yasovchi -dosh qo‘shimchasi og‘riq so‘ziga qo‘shilib, ish-harakat,holati, xususiyati umumiy bo‘lgan okkazional so‘z yasalgan. Bu orqali shoir Abdulla Qahhorning turmush o‘rtog‘i Kibriyo Qahhorovanning holatini juda ta’sirli ifodalagan.

Shoir affiksatsiya usulida hosil qilgan [ot+dosh] qolipidagi neologizmlardan samarali foydalanadi.

Men bilan ellikka kirdi

svularim, daryolarim,

Menga bu **tildosh** ila

qardosh bugun ellikdadir (“Ellik yosh g‘azali” –B.180).

Bunda -dosh affiksi yordamida tildosh (bir til egalari) nazarda tutilgan. Ya’ni ellik yoshga yetgandan kishilarning so‘zlari bir-biriga to‘g‘ri kelishi nazarda tutilgan.

Xudo menga bergan bolam,

Nigohboni bilan kelgan (“Dil” –B.64).

Ushbu misrada ot yasovchi -bon qo‘shimchasi biror narsaga qarab turuvchi, qo‘riqlovchi ma’nosini bildiruvchi shaxs oti yasagan. Bu qo‘shimcha odatda aniq otlarga qo‘shilib shaxs oti yasagan bo‘lsa shoir she’rida esa mavhum otga qo‘shilib ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan shaxs oti yasagan.

Ko‘yingda onchalar dahr ichra qilmishdir bu dil zori,

Ki yaxlit lolarang bo‘lmish xarobot birla **kulzori**,

Alamlar tarqalib butkul, tuganmish ranj-u ozori,

Yuzing, ey sarv, jonim gulshanning toza gulzor (“Bahor ayyomidur...” –B.111).

Shoirning Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azaliga muxammas shakida bitilgan “Bahor ayyomidur” g‘azalida insonning ko‘ngli bahor kelishini intiq kutib, lolarangdek qon bo‘lganini, yonib kulga aylanib xarobot bo‘lganini e’tirof etadi. Misra talabi bilan adib o‘rin-joy ma’nosini ifodalaydigan yangi [ot+zor] qolipi asosida yangi okkazional birlik kulzor so‘zini keltiradi.

Affiksatsiya usulida hosil qilingan okkazional so‘zlardan yana biri o‘rin –joy ma’nosidagi ota yasovchi qo‘shimcha -iston yordamida yasalgan.

Ne sharafdir, bu hayot bo‘stoniga ziynat berib,

Odam olamga ziyo, keltirsa har insonga tong

Ezgulik karvonlarin yo‘llab, muyassar aylagay

O‘zbekistonni bahoriston, **quyoshistonga** tong (“Tong” –B.153).

Keltirilgan “Tong” she’rida O‘zbekistonni quyoshli yurt degan ma’nodagi quyoshiston (o‘rin-joy oti)ni yasaydi. Adibning “Bir soniya meni...” she’rida yana shunday -iston qo‘shimchasi yordamida yangi okkazional birlik hosil qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xush dardining mayiga menmen qadah,

Garchi meni mastlarga xon qiladir.

Shul-chun shakaridan oladirman tun- kun,

Toki laqabimni **shakariston** qiladir.

-zoda qo‘shimchasi biror mansabga xoslik ma’nosini ifodalaydi.Masalan, xonzoda xonlar avlodi mansub degan ma’noni ifodalagan. Shoirning “Ulug‘ bobong Navoiy...” deb boshlanuvchi she’rida quyidagicha keltirgan.

Nechun yolqinlanib kelgay bu **to‘fonzoda** toychoqlar?

Ular farzandlaringga Boychibor-u ham G'iro't bo'lgay ("Ulug' bobong Navoiy" – B.154).

Bunda Boychibor va G'iro't kabi zotli otlarning asl zoti to'fonzodalarga borib tarqalishini ta'kidlaydi. –zoda qo'shimchasi yordamida ohang talabi bilan ham okkazional birlik yasalgan.

Vatan bo'stonlaring ozoda bo'lgay,

O'g'il ham qizlaring **jonzoda** bo'lgay.

Sultonday qad rostlar har bir daraxting,

Ochilgan har guling xonzoda bo'lgay.

Shoir she'rlarida tahlil qilish jarayonida [ot+zoda] qolipi asosidagi so'zlarning faol yasalganligini kuzatamiz.

Xulosa qilib aytganda, Sirojiddin Sayyid asarlarida o'ziga xos qolipdagi okkazionalizlar yaratilgan bo'lib, ular ham nominativ hamda uslubiy ma'no berish uchun xizmat qilgan. Mazkur nutqiy hosilalar til me'yorlari asosida shakllangan, bu esa lug'at qatlamimizning boyishiga olib keladi. Shoir ijodidan keltirilgan neologizmlar o'quvchiga estetik zavq berish bilan bir qatorda ijodkorning badiiy niyatini ifodalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. Hoirgi adabiy o'zbek tili. –T.: Universitet. 2006. – 476 b.
2. Йўлдошев Б. Бадий матн ва лингвопоетик таҳлил асослари. -Т.: Фан, 2007. – Б.31.
3. Kiličev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. 2021 02 94.
4. Kiličev B.E., Safarova M.Z. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.
5. Kiličev B.E., Safarova O. Study of toponyms in the language of the work. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol.10/ Issue 1, Jan. (2022) 92–95.
6. Kiličev B.E., Bafojeva N. A. Some characteristics of onomastic units in Abdullah Qodiriy's novel "Bygone days" Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 01, January 2022
7. Kiličev Bayramali, Khojaoglu Timur, Adizova Nodira Classification of Oykons (On the Example of Bukhara Region) International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, 2022, Volume 16 <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm>
8. Розикова Г. Окказионал лисоний бирликлар ҳақида// Тил ва адабиёт таълими. 2014. 6-сон.
9. Сирожиддин С. Сўз йўли. Икки жилдлик танланган асарлар. 2-жилд. –Т.: Шарқ, 2008. – 383 б.
10. Тошалиева С.Н. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: филол.фанл.номз...диссер. –Т., 1998. –Б.27.
11. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: филол.фанл.номз...диссер. –Т., 2007. –Б.12].

12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007.
13. Uz.m. wiktionary.org.

